

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883751>

## **ADABIY TAHLIL DARSALARINI TASHKIL ETISH (LIRIK ASARLAR MISOLIDA)**

**Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich**

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

**Altmisbayeva Ainur Maqset qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti

Ona tili va adabiyot: qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi

22-24-guruh talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik, ilmiy, amaliy xususiyatlariga doir kompetensiyaviy yondashuv ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida tadqiq qilinish haqida va she’riy asarlarni o‘rganish metodikaning murakkab masalalaridan biri ekanligi, lirk asarlar tahliliga bag‘ishlangan izlanishlar to‘g‘risida hamda lirk asarlar misolida adabiy tahlil darsalarini tashkil etish masalalari haqida fikrlar yuritiladi.*

*Kalit so‘zlar: bilim va ko‘nikmalari, kompetentlik, umumkasbiy kompetensiyalar, mutolaa madaniyati, adabiy tahlil, badiiy matn, she’riy asar, nazm, she’riy matn, lirk asar, samarali dars, adabiy tahlil malakasi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассказывается об исследовании компетентностного подхода к педагогико-психологическим, научным, практическим особенностям формирования у учащихся культуры самостоятельного чтения как важного фактора обеспечения качества и эффективности образования и о том, что изучение поэтических произведений является одним из сложных вопросов методики, об исследованиях, посвященных анализу лирических произведений, а*

также об организации уроков литературного анализа на примере лирических произведений. мысли ведутся.

**Ключевые слова:** знания и умения, компетентность, общепрофессиональные компетенции, культура чтения, литературный анализ, художественный текст, поэтическое произведение, назм, поэтический текст, лирическое произведение, результативный урок, квалификация литературного анализа.

### ANNOTATION

*In this article, readers will talk about research as an important factor in ensuring the quality and effectiveness of Education, a competency approach to the pedagogical-psychological, scientific, practical features of the formation of an independent Mutola culture, and the study of poetic works is one of the complex issues of methodology, about research devoted to the analysis of lyrical works, as well as about*

**Keywords:** knowledge and skills, competence, universal competencies, Mutola culture, literary analysis, artistic text, poetic work, nazm, poetic text, lyrical work, effective lesson, qualification of literary analysis.

**KIRISH.** Bugungi kunda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirish ta’limning eng dolzARB masalalaridan biri hisoblanib kelmoqda. Bu borada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari tajriba-sinovdan o‘tkazilib kelmoqda [ 5; 4].

“Kompetentlik (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeい va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi” [ 1; 8 ] tushunilishi bejiz emas.

**NATIJALAR.** O‘quvchilarda muayyan sifatlarni kamol toptirish uchun o‘qituvchining o‘zidan ham umumkasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lish talab etiladi. Olimlar fan o‘qituvchilari maxsus yo‘nalishdagi, ijtimoiy, shaxsiy va individual kompetenlikni to‘liq o‘zlashtirgan holdagina kompetentli pedagog sanalishini qayd etadilar [ 4; 330-337].

So‘nggi yillarda umumiy pedagogikaga oid tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik, ilmiy, amaliy

xususiyatlariiga doir kompetensiyaviy yondashuv ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minalashning muhim omili sifatida tadqiq qilinadi. Negaki, bilim olishning asosiy usuli bo’lgan mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning umumiylara taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini o’taydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko’tarishda muhim ahamiyat kasb etadi [5; 5].

Endi adabiy tahlil haqida fikr yuritsak. Adabiy tahlil – nashr etilgan asarlar haqida umumiylara tushunchalar(xulos). Bu atama to’liq ilmiy maqola yoki ilmiy ish, kitob yoki maqola bo’limiga ishora qilishi mumkin [ 9 ]. Adabiy tahlil – adabiy ta’limning zaruriy bosqichi hisoblanadi. Badiiy asarning o’quv tahlili adabiyotshunoslik tahlilidan farqlanadi. Agar ilmiy tahlilda adabiyotshunos fan ma’lumotlariga tayansa, o’quv tahlilida o’qituvchi Davlat ta’lim standarti va dastur talablaridan kelib chiqib o’quvchilarining yosh xususiyatlari va bilish darajasini hisobga olib ish ko’radi.

**ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Tanqidchi adabiyotshunos olim Q.Yo’ldoshev o’quv tahliliga xos muhim xususiyat haqida shunday fikr yuritadi: “Hayotdagi har bir odam yechimi topilmagan muammo. Badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, iztiroblari, kechinma-yu o’ylari bilan tasvir etish orqali o’zgani his qilishga, o’ziga daxli bo’lmagan begona odamning dardiga sherik bo’lishga odatlantiriladi. O’z tabiat yo’nalishi va maktab qo’yan pedagogik vazifaning xususiyatiga qarab har bir o’quvchi timsol yordamida qilingan tahlil natijasida o’z ruhiyatida muayyan yangi sifatlar hosil qiladi. Qandaydir shaxslik fazilatlariga ega bo’ladi” [ 5; 6 ].

**MUHOKAMA.** Tahlil usullarini tanlash oson ish emas. U ko’proq adabiy turga bog’liq. Lirika epik asarga, drama eposga qaraganda turlicha tahlil usullarini taqozo etadi. Tahlil “...badiiy matnni o’qish jarayonida o’qituvchining izohi shaklida ham, asarni detallashtirib ko’zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarini aniqlash shaklida ham bo’lishi mumkin... Chuqur ma’nodorlik adabiy tahlilning eng birinchi va asosiy shartidir. Tahlilning hamisha ma’lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi.

Tahlilni loyihalashtirishda “Bumerang”, “Yelpig‘ich”, “FSMU”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “Haqiqatni izlash darsi” kabi bir qator texnologiyalarning qaysi birlari afzalligi haqida savol tug‘iladi. Asar mazmuni, kompozitsiyasi, yozuvchi uslubini aniqlash, o‘quvchini muallif nuqtai nazariga yaqinlashtirish ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifasi bo‘lib qoladi.

Ifodali, sharhli, badiiy o‘qish, hikoya qilish, suhbat o‘quvchilarni tahlilga tayyorlaydi va asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ochishga, yozuvchining mahorati xususida tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Tahlil uchun o‘qituvchi qanday usulni tanlamasin, g‘oyaviy-badiiy muammolar, bosh qahramonlar, ularning taqdiri va muallifning hayotga qarashi diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Asar tahliliga kirishayotib o‘qituvchi ishning asosiy bosqichlarini belgilash bilan quyidagi masalalarni nazarda tutadi:

- tahlilning maqsad va mazmunini (o‘quvchilar nimani va qanday maqsadda o‘rganadi) aniqlashi;
- ishni tashkil qilish rejasini tuzishi (mashg‘ulot bosqichlarini rejalashtirish, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish);
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish jarayonlarini e’tiborga olishi kabilar.

Adabiyot o‘qitish metodikasida kirish mashg‘ulotlaridagi o‘qituvchi so‘zi, asar ustida ishslash va yakunlovchi mashg‘ulotlar tahlilga tayyorlash bosqichlari sifatida qaraladi.

Tahlil muammosini belgilash va o‘quvchilarni o‘rganilayotgan asarga qiziqtirish kirish mashg‘ulotlarining asosiy maqsadidir.

She’riy asarlarni o‘rganish metodikaning murakkab masalalaridan biri. Nazm kishilar ongi va qalbiga katta kuch bilan ta’sir qila oladi. She’riy matnlar – emotsiyal-ifodaviy nutqning takomillashgan namunalaridir. Muallifning “men”i ko‘p hollarda lirik she’rlarni o‘rganishda o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham ancha qiyinchilik tug‘diradi. Boshqacha aytganda, kechinmalarning mustaqil, tugal obraz sifatida berilishi muallifning “men”iga yaqinlashishni taqozo etadi.

Lirik asarlar tahliliga bag‘ishlangan izlanishlarda, xususan, M.Mirqosimova-ning tadqiqot ishida she’r tahliliga yo‘llash bosqichlari quyidagicha ko‘rsatiladi:

- a) ifodali o‘qish davomida o‘quvchilar taassurotlariga tayanib tahlil yuritish;
- b) she’r matni ustida ishlash, asarning badiiy xususiyatlarini o‘rganish;
- v) o‘quvchilarning ijodkorligiga tayanib lirik qahramon qiyofasini o‘rganish;
- g) asar uslubini aniqlab, obraz yaratish mahoratini yoritish [ 2; 88].

She’riy asarning umumlashma tahlili maxsus reja asosida amalga oshirilgani ma’qul. Reja kamroq kuch sarflab, aniq materialni xotirada tiklashga yordam beradi. Asar rejasini tuzish xaritaga sayohat marshrutini tushirib olishdek gap. Reja tuzish o‘quvchini fanni o‘zlashtirishga tayyorlaydi, dunyoqarashini boyitadi. Yaxshi tuzilgan reja badiiy matn tarkibini mazmunli ochish garovidir. Xususan, H.Xudoyberdiyevaning “Ayol o‘tib borar” she’rini izchil reja tuzish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq.

She’rda dunyodagi eng mumtoz zotga xos ulug‘vorlik sharqona falsafa, nozik ta’blik bilan ifoda etilganki, professor Q.Yo‘ldoshev haqli ravishda e’tirof etganidek, “tasvirlanayotgan tuyg‘ularning yirikligi o‘qirmanni seskantiradi, ham o‘ylantiradi, seskantirib o‘ylantirish orqali yuksaltiriadi”. [ 6; 36 ]

1. Bunda dastlab she’r matni ifodali o‘qiladi;
2. Ayrim so‘z va iboralar sharhlanadi;
3. She’rdagi g‘oyaga munosabat bildiriladi;
4. Obrazlar, badiiy tasvir vositalari aniqlanadi;
5. Lirik qahramon, ayol va yo‘lbars obrazlariga munosabat bildiriladi;
6. Ijodkor kechinmalarini anglashga yo‘naltiruvchi savollar tuziladi va suhbat o‘tkaziladi.

Maxsus tuzilgan reja o‘quvchilardan mustaqil ishlashni, o‘z nuqtayi nazarini ifodalashni, baho berishni talab qiladi. Izlanish muhiti ishni jonlantiribgina qolmasdan, qiziqarli ham qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, lirikaning o‘quvchi shaxsiyatiga ta’sirini kuchaytiradi.

She’riyat nasrda ifodalab bo‘lmaydigan murakkab insoniy his-tuyg‘ular, chuqur ichki hissiyotlarni o‘zida ifoda etadi. Nazm birinchi o‘rinda insonning ichki dunyosini tasvirlashga qaratilganligi bilan epos va dramadan farqlanadi. Nazmni o‘rganishda shoir tuyg‘ulariga hamohang hissiyotlar kuchi va teranligini ochib berish o‘qituvchining bosh vazifasi bo‘lib qoladi.

**XULOSA.** Demak, adabiy tahlil darslarini tashkil etishda xilma-xil metod va usullardan foydalanish mumkin. Darsning samaradorlik darajasini esa o‘qituvchining bilimi, ijodkorlik qobiliyati, darsni ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishdagi mahorati belgilaydi. Adabiy tahlil vositasida o‘quvchining badiiyat olamiga mehrni, badiiy ijod namunalaridan hayratlanish hissini uyg‘ota olgan o‘qituvchi faoliyati samarali yakunlanadi. Samarali darslardan, albatta, o‘quvchi nutq kompetensiyasi uchun muhim natijaga erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini asta-sekin kichik hajmli ertak, hikoya, bolalar uchun yozilgan she’rlarni o‘qish jarayonida ularning mazmunini o‘zlashtirib, og‘zaki nutqda qayta bayon qilishga, odob va axloq masalalariga munosabat bildirishga o‘rganadilar. O‘quvchilar obrazlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga tavsif berish malakasini hosil qiladilar. Ayni shu ko‘nikmalarga tayanib, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasi shakllantirila boshlanadi.

**Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati:**

1. Asadov Y.M. Ta’limda kompetensiyaviy yo‘ndashuv. //Maktab va hayot. –T.: 2014, №1. – B. 8.
2. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan.dokt... diss. –T.: 1995. – B. 88.
3. Muslimov N.A. va boshq. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.–T.:Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi.2013. – B.10.
4. Nosirov B.G‘. Kasbiy kompetensiya va pedagogning kasbiy kompetentligi. International scientific conference on the topic “Effectiveness of using innovative technologies in agriculture and water management” 2024 year The 22-23 rd of February Bukhara. –B. 330-337-betlar.
5. Kambarova S.I. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: 2016. – B. 4.
6. Yo‘ldosh Q. Buyuk qushning parvozi. //Yoshlik. –T.: 2013, № 9. –B. 36.
7. Xolmatova M.I. Bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. – Toshkent. Oliy ta’lim / Высшее образование. № 5 (138), 2024. 3-9-betlar.
8. <https://uk.linkedin.com/in/james-raven-26a036150>.
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy\\_tahlil](https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy_tahlil).